SOVET DAVRIDA O‘ZBEKISTONNING MA’MURIY-HUDUDIY BO‘LINISHI TARIXINING AYRIM JIHATLARI: MANBALAR VA TAHLIL

Matyakubov Alisher Eshchanovich,
Urganch RANCH texnologiya universiteti
kafedra dotsenti v.b. t.f.d. (PhD)

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19967846

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekiston SSRning ma’muriy-hududiy bo‘linishiga oid turli manbalarda keltirilgan ma’lumotlar tahlil qilinadi. Unda amalga oshirilgan milliy-davlat chegaralanishi, rayonlashtirish jarayonlari, viloyatlar va tumanlarning tashkil etilishi hamda ularning tuzilishidagi o‘zgarishlar o‘z aksini topgan. Manbalarning o‘rganilishi natijasida Sovet davrida O‘zbekistonning hududiy bo‘linishiga qanday omillar asos qilib olingani bilan bog‘liq jarayonlar yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston, sovet davri, milliy-davlat chegaralanishi, rayonlashtirish, ma’muriy-hududiy tuzilish, statistika.*

Аннотация. *В данной статье анализируется информация, приведенная в различных источниках об административно-территориальном делении Узбекской ССР. В нем отражены национально-государственное размежевание, процессы районирования, образование областей и районов, а также изменения в их структуре. В результате изучения источников освещены процессы, связанные с тем, какие факторы легли в основу территориального деления Узбекистана в советский период.*

Ключевые слова: *Узбекистан, советский период, национально-государственное размежевание, районирование, административно-территориальное устройство, статистика.*

Abstract. *This article analyzes information from various sources regarding the administrative-territorial division of the Uzbek SSR. It reflects the national-state delimitation, zoning processes, the organization of regions and districts, and changes in their structure. As a result of studying the sources, the processes related to the factors that served as the basis for the territorial division of Uzbekistan during the Soviet period were highlighted.*

Keywords: *Uzbekistan, the Soviet period, national-state delimitation, zoning, administrative-territorial structure, statistics.*

Kirish va dolzarbligi. Sovet hukumati O‘rta Osiyoda to‘la hukmronlikni o‘rnatish, o‘lkadagi tabiiy boyliklarga egalik qilish, mintaqani milliy - hududiy jihatdan bo‘lib tashlash orqali hukmronlik qilish maqsadida 1920-yildan keyin milliy chegaralanish masalasini kun tartibiga qo‘ya boshlagan. O‘zbekistonning ma’muriy-hududiy tuzilishi tarixi ko‘p bosqichli, murakkab jarayon bo‘lib, uning shakllanishida turli siyosiy, iqtisodiy omillar muhim rol o‘ynagan.

Mazkur mavzuni o‘rganish va ma’lumotlarni tahlil qilish O‘zbekiston SSRning ma’muriy-hududiy tuzilishiga doir statistik hisobotlar, rasmiy hujjatlar hamda boshqa tarixiy manbalar asosida olib boriladi. Bu esa mavzuni mohiyatini yanada chuqurroq

tushunish, sovet davridagi ma’muriy-hududiy yo‘nalishdagi ishlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy oqibatlarini to‘g‘ri anglash imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolani tayyorlashda qiyosiy tahlil usuliga asoslanib, rasmiy hujjatlar, statistik va tarixiy manbalar, ilmiy adabiyotlar, zamonaviy tadqiqot natijalaridan foydalanildi. Manbalarda ko‘tsatilgan ma’lumotlarni tanqidiy tahlil qilish, taqqoslash va tizimlashtirish ularning shaffoflik va ishonchlilik mezonlariga mosligini ko‘rsatadi hamda ma’muriy-hududiy o‘zgarishlar jarayonini obyektiv yoritishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tahlillar va natijalar. 1924-yil 27-oktyabrda Butunittifoq Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining ikkinchi chaqiriq 2-sessiyasida O‘rta Osiyoda milliy respublikalar tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilindi [1]. O‘zbekiston SSR Markaziy Revkomi 1925-yil 13-yanvarda bo‘lgan majlisida O‘zbekistonni ma’muriy jihatdan ajratish masalasini ko‘rib chiqib, ma’muriy bo‘linish haqidagi masalani dolzarb vazifalardan biri sifatida baholadi [2].

O‘zbekiston SSR Markaziy Revkomi Prezidiumi 1925-yil 29-yanvarda butun O‘zbekiston bo‘yicha ma’muriy bo‘linishning bir xil tizimini joriy qilinishga doir qarorni qabul qilib, 1925-yil martdan to O‘zbekiston SSRda yangi rayonlashtirish o‘tkazilgungacha sobiq Turkiston ASSRda bo‘lganidek, respublikaning butun hududini oblastlar (viloyatlar), uyezdlar, volostlar va qishloq sovetlariga bo‘lishga kelishib olindi. Natijada O‘zbekiston SSRda 23 ta uezd, 240 ta volostdan iborat 7 ta viloyat – Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, Zarafshon (Buxoro), Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlari hamda Konimex avtonom qozoq rayoni tashkil etilgan [3].

1925-yil 13-17-fevralda Buxoroda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston SSR Sovetlarining I ta’sis qurultoyida “O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining tashkil topishi to‘g‘risida”gi Deklaratsiya qabul qilindi [4]. 1925-yilning may oyida bo‘lib o‘tgan Sovetlarning III s’ezdida O‘zbekiston sobiq Ittifoq tarkibiga kiritildi. Bu orqali ittifoq va respublika o‘rtasidagi vazifalar taqsimlandi. Lekin hal qiluvchi qarorlar faqat Markaz tomonidan qabul qilinar edi [5].

1926-yil 10-iyunda O‘zbekiston SSR Sovetlari MIQ ning birinchi chaqiriq IV sessiyasi rayonlashtirish bo‘yicha Markaziy siyosiy komissiyaning raisi A.Mavlonbekovning asosiy ma’ruzasini tinglab [6], eski ma’muriy bo‘linishning yashab kelayotgan qoldiqlarini tugatish maqsadida, O‘zbekiston SSRda rayonlashtirish o‘tkazishga qaror qiladi. Amalda bo‘lgan 4 pog‘onali (qishloq soveti, volost, uezd, viloyat) o‘rniga ma’muriy bo‘linishdan 3 pog‘onali (qishloq soveti, rayon, okrug) ma’muriy bo‘linishga o‘tish, volostlar va uezdlar ortiqcha instansiya bo‘lgani uchun ularni tugatishga va o‘rniga zaruriy sondagi ma’muriy-iqtisodiy

markazlar barpo etishga qaror qilindi. Yangidan barpo etiladigan rayonlar bir-biri bilan iqtisodiy tomondan yaqinlashishi va xo‘jalik tomondan aloqasi asosida okruglarning qat’iy tizimiga birlashtirilishi kerak edi [7].

1930-yilda O‘zbekiston SSR Davlat rejalashtirish komiteti tomonidan chop etilgan “O‘zSSR tumanlari raqamlarda” deb nomlangan statistik hisobotda respublika tumanlarining iqtisodiyoti, aholisi va infratuzilmasiga doir batafsil raqamli ma’lumotlar keltirilgan [8]. Hisobot mahalliy rahbariyatga iqtisodiyotning ahvoli to‘g‘risida qisqa, raqamli ko‘rsatkichlarni berish va O‘zbekiston SSR tumanlarida iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy faoliyatni rejalashtirishda yordam berish maqsadida tuzilgan. Hududiy ma’lumotlarning yetishmasligi tufayli hisobot to‘liq va mukammal bo‘lmagan, lekin ushbu hisobot o‘sha davrda tuman darajasidagi rejalashtirish uchun muhim manba bo‘lgan. Hujjatda keltirilgan raqamlar - shahar va tumanlar, aholi punktlari, kolxozlar to‘g‘risida batafsil ma’lumot olish imkonini beradi.

SSSR MIK tomonidan 1934-yilda chop qilingan ma’lumotnomada [9] esa 1934-yil 15-iyul holatiga ittifoqdosh respublikalar bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan. Ma’lumotga ko‘ra, SSSRda 1923-yildan 1934-yilgacha hududiy birliklar soni o‘zgarib borgan. Kitobda keltirilishicha, O‘zbekiston SSR jami 71 ta tumanga ega bo‘lgan, shundan 64 ta tuman to‘g‘ridan-to‘g‘ri O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasiga bo‘ysungan, qolgan 7 ta tuman esa respublika markazidan ancha uzoqda, uning shimoliy g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, Xorazm okrugi tarkibiga kiritilgan.

SSSR Oliy Soveti Prezidiumi huzuridagi Axborot-statistik bo‘lim tomonidan chop qilingan “SSSR: Ittifoq respublikalarining ma’muriy-hududiy bo‘linishi” nomli statistik to‘plam 1938-yil 1-oktyabr holatiga Ittifoqning ma’muriy-hududiy bo‘linishi haqidagi rasmiy ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi [10]. Ushbu nashrda SSSRdagi ittifoq respublikalari, ularning ma’muriy birliklari viloyatlar, tumanlar, shaharlar, qishloq sovetlari va boshqa hududiy birliklar haqida to‘liq ma’lumotlar keltirilgan. Hujjat arxiv tadqiqotlari uchun muhim manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu manbadagi ma’lumotlarga asosan, 1938-yil holatiga O‘zbekiston SSRda 1 ta avtonom respublika, 5 ta viloyat, 1 ta okrug, 111 ta tuman, 1 886 ta qishloq soveti, 26 ta shahar, 8 ta ishchilar posyolkasi va 8 ta shaharga tenglashtirilgan posyolka mavjud bo‘lgan.

Sovet davlatida 1940-yil davomidagi ma’muriy-hududiy o‘zgarishlar natijasida respublikalar soni 5 taga, viloyatlar soni 2 taga oshgan bo‘sa, okruglar 3 taga kamaygan. Ittifoqdagi shaharlar soni 1071 tadan 1241 taga yetgan bo‘lsa, qishloq sovetlari 7998 taga ko‘paygan [11]. Bu davrda O‘zbekiston SSRning ma’muriy-hududiy tuzilishiga e’tibor qaratsak, respublikaning umumiy hududi 410,5 ming km² ga teng bo‘lgan. 1939-yil 17-yanvar holatiga ko‘ra, respublika aholisi soni 6 282 446 kishini tashkil qilgan. Shundan 4 837 382 nafari qishloq joylarida, 1 445 064 nafari

esa shaharlarda istiqomat qilgan. 1941-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekiston tarkibida 1 ta avtonom respublika, 5 ta viloyat, 1 ta okrug, 25 ta shahar, 116 ta qishloq tumani, 9 ta shahar tumani, 19 ta posyolka, 1 387 ta qishloq soveti mavjud bo‘lgan. Shaharlardan 25 tasi respublika, viloyat va okrug boshqaruviga qarashli bo‘lgan.

Ikkinchi jahon urushi tugagach, mamlakatdagi ma’muriy-hududiy tuzilish masalalariga e’tibor qaratsak 1946-yil 1-yanvar holatiga qayd etilgan statistik ma’lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi [12]. Bu davrda O‘zbekistonda quyidagi ma’muriy-hududiy birliklar mavjud bo‘lgan: 1 ta avtonom respublika, 9 ta viloyat, 26 ta respublika va viloyat bo‘ysunuvidagi shaharlar, 133 ta qishloq tumani, 11 ta shahar tumani, 30 ta shaharcha, 1421 ta qishloq soveti.

Sobiq Ittifoqning ma’muriy-hududiy taqsimotiga oid 1958-yilda chop etilgan ma’lumotnoma doirasida 1958-yil 1-yanvardan 1959-yil 1-yanvargacha bo‘lgan davrda amalga oshirilgan o‘zgarishlar haqidagi ma’lumotlar keltirilgan [13]. Ma’lumotnoma orqali O‘zbekistonda 1 ta avtonom respublika, 9 ta viloyat va 148 ta tuman mavjud bo‘lganligini, jami shaharlar soni 33 tani tashkil etganini ko‘rish mumkin.

1965-yilga kelib, O‘zbekistonning ma’muriy-hududiy birliklari sifatida 1 ta avtonom respublika, 9 ta viloyat, 37 ta respublika va viloyat bo‘ysunuvidagi shaharlar, 87 ta shaharcha (posyolok) mavjud bo‘lgan [14].

1980-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekiston SSRda 15,765 million aholi istiqomat qilgan bo‘lib, ularning katta qismi qishloq joylarida yashagan. Respublikada 1 ta avtonom respublika, 11 ta viloyat, 148 ta tuman, 93 ta shahar, 95 ta shaharcha, 1 061 ta qishloq soveti mavjud bo‘lgan [16].

1987-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra O‘zbekiston SSR bo‘yicha ma’lumotlar quyidagicha ko‘rinishga ega: avtonom respublika -1 ta, viloyatlar soni -12 ta, tumanlar soni -155 ta, shaharlar soni - 38 ta, shahar tipidagi posyolkalar soni - 97 ta, qishloq sovetlari soni -1214 ta [17]. Bu ma’lumotlar o‘sha davrdagi O‘zbekiston SSRning ma’muriy-hududiy tuzilishini tahlil qilish va hududiy rivojlanishini o‘rganish uchun muhim hisoblanadi.

Xulosa. Mavzuga doir rasmiy, statistik va tarixiy manbalarni o‘rganish hamda tahlil qilish Sovet hokimiyatining O‘rta Osiyoni hududiy jihatdan bo‘lib tashlash va qulay boshqarishga qaratilgan siyosatini oydinlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu tahlillar Sovet davrida olib borilgan hududiy siyosatning murakkab jarayonlarini va uning ijtimoiy-siyosiy oqibatlarini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Собрание законов и распоряжений Рабоче-крестьянского правительства Союза Советских Социалистических Республик. Отд. 1. - Москва, 1924-1937.
2. ЎзМА, Р-87-фонд, 1-рўйхат, 3-иш, 25-варақ.
3. Материалы по районированию Узбекистана. Выпуск I. Краткая характеристика проектируемых округов и районов. – Самарканд: Издание ЦКР Уз, 1926.
4. ЎзМА, Р-86-фонд, 1-рўйхат, 2386-иш, 139-варақ.
5. Ишанходжаева З. 1920–1930 йиллардаги Ўзбекистонда совет ҳокимиятининг олиб борган сиёсати // Доно зиёева номидаги “Ўзбекистон тарихининг долзарб масалалари (XIX аср иккинчи ярми – XX аср охири)” 1-умуммиллий илмий йиғини тўплами. Т.: 2022. – Б. 273-275.
6. Правда Востока, 25 июня 1926 г.
7. Норматов О. М. Ўзбекистонда районлаштириш сиёсатининг амалга оширилиши // Фалсафа ва ҳуқуқ журнали. 2020. №2. – Б. 152-153.
8. Районы УзССР в цифрах. Самарканд: Издательство: Государственная Плановая Комиссия УзССР, 1930.
9. Административно-территориалное деление Союза ССР на 15 июля 1934 года / Центр. Испол. Комитет Союза ССР. - М. : Власт Советов, 1934.
10. Административно-территориальное деление союзных республик на 1 октября 1938 года. Информационно-статистический отдел при Секретариате Президиума Верховного Совета СССР. Москва: Издательство «Власть Советов», 1938.
11. Административно-территориальное деление союзных республик на 1 января 1941 года. Информационно-статистический отдел при Секретариате Президиума Верховного Совета СССР. Издание третье, дополненное. Москва: Издательство «Ведомостей Верховного Совета СССР», 1941.
12. Административно-территориальное деление союзных республик на 1-е января 1946 года / Информационно-статистический отдел при Секретариате Президиума Верховного Совета СССР. - Издание 4-е, дополненное. -Москва : Известия Советов депутатов трудящихся СССР, 1946.
13. Административно-территориальное деление союзных республик. Дополнения к справочнику выпуска 1958 года : Изменения, происшедшие за период с 1 янв. 1958 г. по 1 янв. 1959 г. - М., 1959. – 53 с.
14. Административно-территориальное деление союзных республик на январь 1965 года. Издание Президиума Верховного Совета СССР. М.: Издательство "Известия", 1965.
15. Административно-территориальное деление союзных республик на 1 января 1980 года : [справочник]. - М., 1980.
16. Административно-территориальное деление союзных республик: на 1 января 1987 года : [справочник] / Президиум Верховного Совета СССР ; [сост. В. А. Дударевым, Н. А. Евсеевой]. - Москва : Известия, 1987.